

Date: 5<sup>th</sup> November-2024

## KREATIV PEDAGOGIKA FANINI TAMOYILLARI VA MEZONLARI

Xojiakbarova Robiya Fazliddinovna

Yangi asr universiteti 101\22 PP PEDAGOGIKA va PSIXOLOGIYA

Yo'nalishi 3- bosqich talabasi



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mavzuning nazariy asoslarini mukammal o'rganish, tahlil qilish,kreativlik ,oliy ta'lif talabalarining kreativ pedagogika fanini tamoyillari va mezonlari nimaga bog'liq ekanligi haqida ma'lumot berish, kreativ pedagogikaning muammoli tamoyili va kreativlikni rivojlantirishning bosh maqsadi.

**Kalitso'zlar:** kreativ pedagogika tamoyillari mezonlari kreativlikni rivojlantirishning bosh maqsadi, ta'lif qonuniyatları va tamoyillari,qobiliyat, pedagogning kreativlik potentsiali, pedagogning kreativlik imkoniyatini aniqlovchi mezonlar, Ijodkor shaxs, xulosa.

### KIRISH

*"O'qituvchining vazifasi talabaga bir umrga yetadigan bilierish emas, balki uni bir umr bilim olishga o'rgatishdir "*

Bugungi globallashuv kuchaygan davrda har qaysi jamiyat kreativ shaxslarga ehtiyoj sevadi. Bu tabiiy hol albatta. Chunki dunyoda har daqiqada sodir bo'layotgan o'zgarishlar shuni taqozo qilmoqda.

Shu munosabat bilan turli soha olimlarining e'tibori pedagogik jarayon sharoitida talaba shaxsning kreativ salohiyatini ochish va rivojlantirish muammosiga qaratilgan. Demak zamонавиу та'lif muassasalarida pedagogik jarayonni tashkil etishning yangi paradikmadik asoslarini ishlab chiqarish zarurati tug'iladi va bu esa pedagogikaning yangi innovatsion yo'nalishi ya'ni kreativ pedagogikaga murojaat qilishga imkoniyat yaratadi.

Kreativ pedagogika muammolari yaxlit pedagogik nazariya va boshqa ijtimoiy fanlar tizimida: pedagogika tarixi va ta'lif falsafasi, umumiylar va kasbiy pedagogikava psixologiya, o'qitish va tarbiyalash usullari va texnologiyalari, kasbiy etika va boshqalarda ko'rib chiqiladi. Doimiy o'zgarib turadigan tashqi va ichki dunyo, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va faoliyat mazmuniga mos keladigan kreativ shaxsning shakllanishi va rivojlanishi inson ontogenezining butun davri - tug'ilishdan to umrining oxirigacha davomiylik, uzl

uksizlik va qamrab olishni talab qiladi. Mahalliy pedagogikada shaxsning kasbiy va ijodiy salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish asosida uning kasbiy va ijodiy faoliyati tajribasini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar deyarli yo'q. An'anaviy professional tajriba bilim, ko'nikma va malakalarining birlashuvi sifatida aniqlanadi. Bu faoliyatni o'zlashtirish jarayonida tajribaning shakllanishi o'z-o'zidan sodir bo'lishini anglatadi. Ijodiy faoliyat tajribasini o'rganish masalasi umuman ko'tarilmaydi.

Kreativlik tushunchasi lotincha so'zdan olingan bo'lib , yaratish, ijodkor, yaratuvchi degan ma'nolarni ifodalaydi. Lekin mohiyatan bu tushuncha insonning ijodiy qibiliyatining namoyon bo'lishidir.

Date: 5<sup>th</sup>November-2024

" Kreativlik: inson aqliy salohiyatining yuksak darajadagi hisoblanib, obyektdagi aloqadorliklarni tahlil qilish va o'zgartirish asosida yangi mazmunni yaratadi"

" Kreativlik: Bu alohida alohidalik emas balki mahsuldor produktiv tafakkurga tegishli shaxsiy qobiliyat bilan taqozolangan umumiy qobiliyatdir "

" Kreativlik: shaxsning egallagan tajribani idrok qilish va anglash qibiliyatidir."

"Qobiliyat : individual - psixologik alohidalik bo'lib, sub'ektiv shartlar orqali muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishdir."

Ijodkor shaxs: bular rassomlar, fotosuratchilar, shoirlar, yozuvchilar - turli xil ijod turlarida o'z qobiliyatlarini amalga oshiradigan insonlardir. Ijodkorlik qoida tariqasida, ishbilarmonlarga xos xususiyatdir. Misol tariqasida: Dizaynerlar reklama beruvchilar, brend menejerlari va boshqalar.

Kreativ pedagogika: bu ijodiy ta'lif fani va san'atidir . Kreativ pedagogika majburlash pedagogikasidir, hamkorlik pedagogikasi , tanqidiy pedagogika kabi pedagogika turlariga qarama - qarshi bo'lgan pedagogikaning bir turi hisoblanadi. Kreativ pedagogika o'quvchilarni ijodiy fikrlashga yoshlarimizning o'z kelajaklarini yaratishga yordam beradi.

Kreativ pedagogika:har qanday fanga, xoh matematika xoh fizika, xoh tillar, xoh iqtisod bo'lsin, qo'llanilish mumkin bo'lgan pedagogikadir. Ma'lum darajada aytish mumkinki uning metodologiyasi o'qitish va o'rganish jarayonini o'zgartiradi.

Rivojlangan kreativlik shaxs ijodkorligining muhim tarkibiy qismidir. U shaxsning kognitiv maqsadga erishish, boshlangan ijodiy ishni davom ettirish, bilish faoliyatidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish , aqliy harakatlarni rejalshtirish va ketma-ketlashtirish, maqsadga erishish variantlari va usullarini izlash istagida ifodalanadi.

Tamoyillari: tamoyil so'zi tushunchasi yunoncha so'zdan olingan bo'lib biror - bir nazariyaning asosi, negizi, asosiy boshlang'ich qoidasi, faoliyatning asosiy qoidasi, boshqaruvchi g'oyalar umumlashtirilganda talab degan ma'nolarni ifodalaydi. Har bir fan yoki soha o'z tamoyillari asosida rivojlanib bormoqda. Pedagogika sohalarida tamoyillari fanning umumiy tamoyillaridan kelib chiqadi. Fanlar prinsip va qoidalari bizga bog'liq bo'lmagan holda mavjud. Ulardan chetga chiqish mumkin emas, aks holda pedagogik faoliyat befoyda, balki zararli ham bo'ladi. Kreativ pedagogika pedagogikadan ajralib chiqdi, tabiyki, o'z asosida shu fan prinsiplarga tayanadi. Pedagogikadagi prinsiplar shaxs ta'lif tarbiyasining umumiy yo'nalishini beradi va aniq pedagogik vazifalar hal etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Biroq shu fan rivojlanishining har bir davri uchun pedagogika prinsiplari haqidagi masala munozaralidir. Zamonaviy davr ham bundan mustasno emas. Olimlar u yoki bu prinsiplarni olg'a suradilar yoki yangicha ma'lumotlarni ifodalaydilar. Shu o'rinda aytish joizki ezgulik, tartiblilik , haqqoniylilik rostgo'ylik, mehnatsevarlik, jamoalik kabi sifatlar va xususiyatlari o'zida birlashgan shaxs tavsiyi axloqiy tamoyillar deb ataladi. Hayotda qoida sifatida qabul qilingan talabalardan kishilar o'zlariga odamlar orasidan namunalar tanlaydi. Bu axloqiy ideal deyiladi. Axloqiy me'yorlar har bir inson va jamiyat uyg'unlikda mavjud bo'la olishga intilgan kishilik jamiyatning ko'p asrlik tajribasi .

Date: 5<sup>th</sup> November-2024



Ta'lim qonuniyatlari va tamoyillari: O'quv jarayonida amalga qiluvchi barcha qonuniyatlar umumiyligi va xususiy tarzida ikki guruhga ajratiladi. Amal qilishga ko'ra yaxlit didaktik tizimini qamrab oladigan qonuniyatlar umumiyligi amal qilishga ko'ra faqat alohida tarkibiy qismlariga taalluqli bo'lgan qonuniyatlar esa xususiy ya'nini aniq deb ataladi.

Tamoyillar ta'lrim jarayonining mohiyati, qoidalar esa uning alohida tomonlarida aks ettiradi. Ta'limga mazmunli va tashkiliy metodik tamoyillardan tashkil topgan tizim sifatida e'tirof etish mumkin. Ta'limga mazmunli tamoyillari. Ular ta'limga mazmunini tanlash bilan bog'liq bo'lgan qonuniyatlarni aks ettiradi va qoidalarini ifodalaydi. Fuqarolik, ilmiyligi, tarbiyalovchi ta'limga, fundamentalligi va amaliy yo'nalghanligi (ta'limga hayot bilan, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligidi)dir.

Kreativlikni rivojlantirishning asosiy nazariy va amaliy asoslarini tahlil qilish natijalari bo'lajak O'qituvchining pedagogik amaliyot davridagi kreativligini rivojlantirishning tarkibiy-funktsional modeli ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Bu tamoyillar quyidagilardan iborat deb atasak...

Muammoli tamoyil

Ijodiy yo'nalish tamoyili

Butunlik va izchillik tamoyili

Individuallashtirish tamoyili.

Muammoli tamoyilga nazar solsak, muammoli tamoyillardan foydalanish pedagogika faoliyatatlari uchun unchalik ham yangilik emas. Kreativlikning mohiyati muammoli xarakterga ega bo'lib, u muammoning nostandard yechimini topishdan iborat. Pedagogik amaliyotlarda bo'lajak o'qituvchilarining kreativligini muammoli tamoyiliga muvofiq rivojlantirish ijodiy muammoli vazifalarda namoyon bo'ladi.

Ijodiy yo'nalish tamoyili nafaqat reproduktiv, balki ijodiy faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi. Kreativlikni rivojlantirish faqat maqsadli xarakterga ega bo'lmasligi kerak ya'nii erishilayotgan natijaga amaliyot so'nggida natijaga erishish degan fikridan yiroq bo'lishi lozim. Bu xolatda talaba o'z topshiriqlarini tez va hech qanday hissiyotlarsiz bajarishlari kerak. Chunki bu xolat mashg'ulot sifatiga, diagnostik natijalariga, ummuman, barcha tajriba-sinov ishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Agar kreativlikning rivojlanishi bosqichli xususiyatlarga ega bo'lsa, xar bir vazifa yoki faoliyat turi sinovning keyingi bosqichi sifatida qaralmasdan, balki o'z- o'zini sinab ko'rishi, o'zini o'zi anglash va qiziqarli faoliyat uchun imkoniyat sifatida yo'naltirilgan bo'lsada, u holda bajarilayotgan ish yuqori sifatli va o'rganilayotgan konsepsiya ko'rsatkichlari o'sish darajasi bo'ladi.

Butunlik va izchillik tamoyili. Butunlik va izchillik tamoyili ijodkorlikni rivojlantirish uchun yaxlitlik, izchillik, to'liqlikni talab qiladi. Faqatgina shu xolatlarda qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun vosita va usullarni tanlashning maqsadga muvofiqligi haqida gapirish mumkin. Kreativlikni bo'lajak o'qituvchilarining yaxlit qiyofasiga hamroh bo'lgan sifatlar tizimining tarkibiy qismi sifatida qarash lozim.

Individuallashtirish tamoyili. Ushbu tamoyilning asosiy jihatni har bir talabaning individual tarbiyaviy ish uslubini, uning shaxsiy rivojlanishining o'ziga xos traektoriyasini (harakatga oid) va ruhiy jarayonlarining ishslash xususiyatlarini xisobga

Date: 5<sup>th</sup> November-2024

olishdan iborat. Shunda dastur har bir ishtirokchissining individual natijasi, shaxsiy xususiyatlar sifatida kreativlikni shakllantirish darajadasiga mos keladigan ijodiy guruhi bo'ladi.

Kreativlikni rivojlantirishning bosh maqsadi bu jamiyatimiz o'quvchilarining aqliy faoliyat va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishdan iborat. Buning uchun biz talabalar erishigan rivojlanish darajasiga emas, balki bir oz oldinroq o'z qadamimizni tashlab, uning fikrlash qobiliyatidan biroz yuqoriroq bo'lgan talabalarimizni qo'yishimiz kerak.

Pedagogning kreativlik potentsiali ko'p darajali jarayon va u quyidagi tamoyillarga tayanadi:



Talabalarni kreativ fikrlashga o'rgatish, ularda

kreativ tafakkurnishakllantira olish uchun avvalo o'qituvchining o'zi kreativ, ijodkor shaxs bo'lishi zarur. Bordi-yu, uning o'zi kreativlik sifatlariga ega bo'lmasa, u holda qandayqilib, talabalarni kreativ fikrlashga rag'batlantira oladi. Chiqariladigan yagonaxulosa quyidagicha: o'qituvchining o'zi kreativ, ijodkor bo'lsagina, talabalar ham shunday bo'la oladi.

Pedagoglarning kreativlik imkoniyatlarini aniqlovchi mezonlar va ularning darajalari Kasbiy faoliyat samaradorligini baholashda pedagogning ijodkorligi –kreativ potentsiali darajasini baholash muhim ahamiyatga ega. Pedagogning kreativlik potentsiali darajasini baholash muhim ahamiyatga ega. Pedagogning kreativlik potentsiali darajasini aniqlovchi mezonlar quyidagilar sanaladi. Pedagogning kreativ potentsiali darajasini aniqlovchi mezonlar. Ushbu mezonlar pedagoglar kreativ potentsialini uch darajada aniqlash imkonini

Pedagog kreativ potentsialining muhim darajalari.

No	Darajalar	Daraja xususiyatlari
1.	Yuqori	Muntazam ravishda turli tashabbuslarni ilgari suradi, kreativ qobiliyatga egaligini izchil namoyon etib boradi. Kreativ jihatdan o'ta faol izlanuvchanlardir.

Date: 5<sup>th</sup> November-2024



2.	O'rta	Ba'zan butashabbusni suradi,kreativ qobiliyatgaegaligi muntazam bo'lmasa-da, ammo namoyon bo'ladi,kre-ativ jihatdan bir qadar faol, izlanuvchan bo'lishga intiladi.	uyoki ilgari
3.	Quyi	Quyi darajada. Garchi u yetarlicha asoslanmagan bo'sa- da tashabbusni ilgari surishga intiladi, kreativ qobiliyati yetarlicha namoyon bo'lmaydi, izlanuvchan bo'lishga intilmaydi.	

Shunday qilib, "Kreativ pedagogika" fanini o'qitish bo`lajak pedagoglarda ularga xos kreativ sifat va ijodiy- pedagogik faoliyat malakalarini samarali rivojlantirish imkonini beradi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki pedagoglarda, kreativlik sifatlari, ijodiy- pedagogik faoliyat malakalarini rivojlantirish borasida Amerikalik tadqiqotchi Patti Drepeau tomonidan taklif qilingan yo'llarda foydalanish kutilgan natijalarni qo'lga kiritishga yordam beradi. Qolaversa jamiyatimiz pedagoglarida kreativlik sifatlarini shakllantirishda ustuvor tamoyillar asosida ish ko'rish aniq maqsadga yo'naltirilgan faoliyat samaradorligini kafolatlaydi. Amaliy mashg'ulotlar jarayonida bo'lajak pedagoglarning kreativ imkoniyatlarining aniq mezonlar asosida aniqlash daraja ko'rsatkichlarini baholash asosida bu boradagi yutuq va kamchiliklarini belgilash, yutuqlarini yanada boyitib, kamchiliklarni esa bartaraf etish chora- tadbirlarini belgilash mumkin bo'ladi. Shaxsan men tavsiya qilgan bo'lar edim . Kreativ pedagogika fanini har bir o'qituvchi-yu Pedagoglar hamda talabalar o'qib o'rganishlarini. Kreativ pedagogika fanini o'rganishingizda avvalo kreativ fikrlashingiz rivojlanib boradi, ijodiy fikrlashlaringiz ham tobora ortib boradi. Masalan sinf xonasida yoki o'quv jarayonida bir muammo yuzaga keldi, shu muammoni osonlikcha bartaraf etish uchun ham kreativ pedagogika fanini o'rganish juda ham foydali bo'ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA AXBOROT MANBALARI:**

1. Kreativ pedagogika- pedagogikaga yangicha yondashuv. Ruzimatova.B.S., Yulchiyev I.I
2. Kreativlik kasbiy kompetentligi va kreativlik. N.M Quchqorova.
3. Kreativ fikrlash "innovatsion rivojlanish nashriyot- matbaa uyi" Toshkent 2021
4. Kreativ fikrlash I. S. Xotamov. M.K Olimov. G.R . Madrahimova. I.S Foziljonov.
5. Pedagogik kasbiy kompetentlik va kreativlik. N. Oripova.
6. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. D. Eshmurotova. N. Misirova.